

HALIMA AHMEDOVA ASARLARIDA METAFORA VA TAKRIR SAN'ATINI QO'LLANILISHI

NavDPI tayanch doktoranti

Boshlang'ich ta'lim kafedراسi o'qituvchisi: Abdullayev Umidjon

Ilmiy rahbar: f.f.d.(DSc), prof. Ernazarova Manzura Saparboyevna

Annotatsiya: Mazkur maqolada Halima Ahmedova she'riyatida inson ruhiy kechinmalarini ifodalovchi metaforik ko'chimlar va ularning tahlili qo'llangan takrorning xususiyatlari o'rganilgan. Ular orqali yuzaga chiqayotgan ma'nolar, takrorlarning qo'llanish o'rniga ko'ra turlari tahlil etilgan. Takrorga stilistik vosita sifatida qaralib, og'zaki va yozma nutqning tashkil etuvchilari bo'lgan til birliklariga emotsional bo'yoq va she'riy ohang berish vazifasini bajarishi ta'kidlangan. Bu fikrlar shoir Halima Ahmedovaning she'rlarida qo'llangan takrorning anafora va epifora turlari misolida dalillangan.

Kalit so'zlar: Metafora, uslub, badiiy asar, ruhiy holat, his-tuyg'u, tasviriy vosita, obrazli tafakkur, poetik nutq, til, hodisa, takror, anafora, assonans, konsonans, rifma, tautologiya, epifora, obrazlilik.

Аннотация: В данной статье исследуются метафорические движения, репрезентирующие психические переживания человека в поэзии Халимы Ахмедовой, и особенности повторения, используемые при их анализе. Анализируются проявляющиеся через них смыслы, виды повторов по месту употребления. Повтор рассматривается как стилистический инструмент и подчеркивается, что он выполняет задачу придания эмоциональной окраски и поэтического тона языковым единицам, входящим в состав устной и письменной речи. Эти идеи подтверждаются примерами анафорного и эпифорного типов повторения, используемых в стихотворениях поэтессы Халимы Ахмедовой.

Ключевые слова: Метафора, стиль, художественное произведение, душевное состояние, эмоция, образные средства, образное мышление, поэтическая речь, язык, событие, повтор, анафора, ассонанс, созвучие, рифма, тавтология, эпифора, образность.

Abstract: This article metaphorical movements representing human mental experiences and their analysis examines the features of repetition used in the poetry of Halima Akhmedova. The meanings emerging through them, the types of repetitions according to the place of use are analyzed. Repetition is considered as a stylistic tool, and it is emphasized that it performs the task of giving emotional color and poetic tone to language units that are the constituents of oral and written speech. These ideas are proved by the examples of anaphora and epiphora types of repetition used in the poems of the poetess Halima Akhmedova. Human tendencies, spiritual experiences it is such

an ocean that the artist can escape from, just as the diver escapes from it. To what extent he opens the ocean to the student depends on his skills. Because human spiritual world is an inexhaustible treasure. Therefore, the human state of mind it is difficult to find a single product of artistic creation that is not reflected.

Key words: Metaphor, style, work of art, state of mind, feeling, image tool, figurative thinking, poetic speech, language, phenomenon, repetition, anaphora, assonance, consonance, rhyme, tautology, epiphora, imagery.

O'tajakman bu dunyodan,
Dunyo mandan o'ta bilmas.
Rohiba - oy, rohib - xayol
Mani bunda tuta bilmas.
Men o'tarman, mungli-mungli
Manimdan so'ng ko'zlar qolur.
O'tarman ko'ksim arolab,
Yergacha ildizlar qolur.
Men o'tarman bir tun kabi,
Toshga to'la izlar qolur,
O'tajakman bu dunyodan.
Dunyo mandan o'ta bilmas,
Rohiba - oy, rohib - xayol
Mani bunda tuta bilmas...

Halima Ahmedova 1960 yilda Buxoro (hozirgi Navoiy) viloyatining Qiziltepa tumanidagi Po'loti qishlog'ida tug'ilgan. ToshDUning filologiya fakultetini tamomlagan (1983). Birinchi she'riy to'plami — «Ko'zimning tili» (1986). Shundan so'ng shoiraning «Tungi marvaridgullar» (1987), «Erk darichasi (1996), «Tiyramox» (2005) kabi she'riy to'plamlari nashr etilgan.¹

U she'rlari metafora usulidan ko'p foydalangan. Metafora masalasi antik davrlardan boshlab o'rganib kelinadi. Xususan, Arastu metafora so'zini keng ma'noda, ko'chma ma'noli so'z ma'nosida qo'llagan. "Ritorika"da faylasuf bu fikrni aniq ifodalaydi: "Metaforaning to'rtta turi ichida analogiyaga asoslanganlari alohida e'tiborga molik". U metaforaning poeziyadagi o'rniga alohida to'xtalmasa-da, poeziya tili haqidagi mulohazalaridan buni bilib olish qiyin emas. Arastu fikricha, poeziya tili o'ziga xos so'z qo'llashni taqozo etadi. Metafora obrazli tafakkur natijasi bo'lib yaraladi, va garchi, umuman, til hodisasi bo'lsa ham, bu xususiyatni tilning estetik vazifasini bajaruvchi poetik nutqdagina to'la namoyon bo'ladi. Zero, mertafora narsa va hodisani shunchaki atab qo'ymaydi, balki uni boshqa narsa-hodisaga qiyosan tavsiflaydi, ongimizda atalayotgan narsa haqidagi jonli tasavvur- obraz hosil qiladi. Bu obraz

¹ Ziyouz.com

poetik nutqdagi aslicha, ya'ni obraz sifatida qabul qilinadi.

²Metaforaning quyidagi turlari mavjud:

1. Nominativ metafora- bu hali o'z nomiga ega bo'lmagan obyektlarning nomlarini shakllantirish uchun mo'ljallangan yangi atamalar yaratish vositasi. Masalan, yomg'ir barabanlari, barglar shivirladi.

2. Kognitiv metafora- indikativ (predikativ) so'zlarning ma'nosini metaforalash kognitiv ahamiyatga ega bo'lgan ushbu turdagi metaforalarni keltirib chiqaradi. Mavhum tushuncha o'ziga xoslikka asoslanadi. Masalan, devor bo'lib turmoq, zerikarli og'riq, o'tkir aql, tikanli javob va boshqalar.

N.D. Arutyunova konsepsiyasiga ko'ra, kognitiv metafora obraz yaratish vositasidan tilda yetishmayotgan ma'nolarni shakllantirish usuliga aylanadi.

3. Obrazli metafora- metaforizatsiya sintaktik siljish bilan birga bo'lishi mumkin: ot nominal pozitsiyadan predikat pozitsiyasiga o'tadi. Masalan: Sobakevich haqiqiy ayiq edi; u shunday quyon, u hamma narsadan qo'rqadi. Prof. N. Mahmudov metaforalarni ikki turga ajratadi: lisoniy metaforalar va kognitiv metaforalar." Kognitiv tilshunoslikda lisoniy metaforalarni kognitiv metaforalardan farqlash urfga kirgan, bu urfga ko'ra, lisoniy metafora o'xshashlik asosidagi nomlashni qayd etadi. Kognitiv metafora esa lisoniy metafora yuzaga kelishining asosini tashkil etadi, ya'ni muayyan mazmun sohasi haqida shaxsga avvaldan bo'lgan boshqa tushunchalari vositasida o'ylash mexanizmi- kognitiv metaforadir. Boshqacha qilib aytganda, noma'lum bir tushunchaning mohiyatini shu tushunchaning biror bir jihatdan o'xshash va tajribada mavjud bo'lgan boshqa tushunchaga qiyosan idrok qilish usuli kognitiv metaforadir" deya ta'kidlaydi. Kognitiv metafora tashqi olamni idrok etish, bu jarayonda ongda shakllangan yangi tushunchani kategoriyalashtirish, konseptualashtirish uni baholashning samarali usulidir. D.Xudoyberganova " Kognitiv metafora- shaxs kognitiv faoliyatiga xos hodisa bo'lib, bir tushuncha yoki bilim haqida strukturalari asosida ikkinchi tushuncha yoki hukmni kategoriyalashtirishdir" deb ta'riflaydi. Demak, kognitiv metafora olamni va undagi jarayonlarni yahlit holda ko'chma ma'noda anglashga yordam beradi. Metafora har qanday uslubda uchraydi. Ayniqsa, she'riy matndagi o'rni beqiyos. Xususan, shoira Halima Ahmedova lirikasini kuzatar ekanmiz, muallifning so'z qo'llash mahorati, ya'ni so'z va birikmalarni metaforik qo'llash orqali tilning estetik vazifalarining nihoyatda keng, rang-barang va xilma xil evrilishlarda ifodalaganligini ko'ramiz. Inson- juda murakkab mavjudot. Uning ruhiyatida, his-tuyg'ularida bo'layotgan o'zgarishlar bevosita nutqida ham aks etadi. Ruhshunoslikda inson emotsiyasi affekt (juda kuchli, lekin qisqa muddatli emotsional reaksiyalar) hissiyot (uzoq va turg'un munosabat) kayfiyat va stress (kuchli ruhiy zarba) kabi turlarga bo'linadi. Bu holatlar

². Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

badiiy matnlarda tilning turli sath birliklari vositasida aks etadi. 5 Metafora juda keng qamrovli hodisadir. Xususan, inson ruhiy olami va undagi jarayonlarni metaforik ifodalash poeziya uchun tipik holat sanaladi³. Bevosita shoira ijodiga murojaat etsak, unda ham inson hissiy kechimlarini original ko'chma ma'nolarada ifodalanganligiga guvoh bo'lamiz.

Masalan,

Yotog'iga kirar tunday ohista,
To'shagida so'qir sog'inch bosh urar.
Och qolgan yostiqlarning sovuq ko'zlari,
Ayolni nahangday yutib yuborar. ("Yolg'iz ayol")

Yuqoridagi misralarda so'qir sog'inch, och qolgan yostiq, yostiqlarning(sovuq) ko'zlari birikmalari yolg'iz ayol ruhiy holatini obrazli tasvirlashda bevosita jonlantirish (personifikatsiya) usulining ishtiroki ham ko'chma ma'noni yanada kuchayishiga olib kelgan. Birgina yostiq leksemasi bilan bog'langan och qolmoq, sovuq ko'zlar tarzidagi birikuvlardagi salbiy holatning o'ziyoq yo'lg'iz ayolning holatini o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol namoyon etmoqda. Shunday "sovuq" so'zlar tanlanganki, undan yolg'iz ayol ruhiy kechinmalari naqadar og'ir ekanligini his qilish mumkin, Sog'inch so'zi bilan birikkan so'qir leksemasi o'zida salbiy bo'yoq ifodalashi jihatidan ham nihoyatda dardli ruhiy kechinmani ifodalashga qaratilgan, ya'ni so'qir leksemasi – bu ko'rmaslik ma'nosini anglatadi. Muallif yolg'iz ayol taqdiriga shunday so'z topganki, ta'riflashga so'z ojiz. Ayolning sog'inchlari ham "ko'r", najotsiz... Bunday betakror ifoda boshqa ijodkorlar asarlarida kam uchraydi. Shuningdek, yostiqlarning nahangday yutib yuborishi metaforik o'xshatish ham bu dardli va tushkun holatning belgisini, darajasini oshirishga xizmat qilgan. Ayolga nisbat berilgan birinchi misraning o'ziyoq "Yotog'iga kirar tunday ohista" butun bir she'r mohiyatidan, ya'ni ayolning ahvolidan darak berib turibdi. Yolg'izlik har bir inson uchun oson kechmaydigan holat. Ayniqsa, ayol beva, yolg'iz qolsa bu nihoyatda og'ir holatdir. O'zbek she'riyatida ham bu mavzuda bitilgan she'rlar uchraydi. Masalan, A.Oripov

(Yigitlar maktubin bitganda qondan,
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu,
Uning ham panohi qaytmadi jangdan...)

M.Yusuf (Bu dunyoda bir qiz bor, yostig'ining yarmi bo'sh...) va boshqa shoirlar asarlarida kuzatish mumkin. Lekin H. Ahmedova ijodining o'ziga xos ranginligi borki, boshqa ijodkorlar bilan solishtirib bo'lmaydi. Buni yuqoridagi misralarda tanlangan so'zlar ham ko'rsatib turibdi.

³ Алпонова Ш. Ўзбек тилида рухий ҳолатнинг акс этиши. -Т., «Академнашр», 2019. -Б.109

Jonimga alanga yugurdi nogoh,
Sharobdan simirib yedim bir qultum.
Men sening qoningni ichdim, Bilmayman,
Sen kimning qonini ichganding, uzum?
("Sharob" she'ridan)

Berilgan misolda ritorik undov qo'llangan bo'lib, shoira uzumga yuzlanish bilan birgalikda qadimgi afsonani eslatib o'tmoqda. Ya'ni qadimda qonxo'r podshohlar gunoh qilgan insonlarni o'ldirib tok tagiga ko'mganligi va shu orqali tokdagi uzumlar serhosil bo'lganligiga ishora. Bu holatda "sen kimning qonini ichganding, uzum?" misrasi birikmali murakkab ko'chimni hosil qilgan. Mangu begonaman, undan ham battar,

Ayriliq, kel, endi ichaylik sharob.
Ruhimda bir eshik taqillay boshlar,
O, yana keldingmi, muqaddas azob! Seni... ("Seni unutaman")

Azobni muqaddas bilgan lirik qahramon uning kelishini metaforik ko'chim bilan ifodalaydi. Ayriliq bilan esa sharob ichib xayrlashishni xohlaydi. Yana bir she'riga yuzlansak.

Quyosh botib ketdi. Yurakda yana
Tungi xayollarning ma'yus titrog'i.
Oyog'im ostida tongni so'roqlab,
Jon berdi erksevar gulning yaprog'i. ("Quyosh botib ketdi yurakda yana.." she'ridan)
Kafan qiling mushfiq onam sochidan,
Daraxtlarga bering jon xirojidan,
Qon olib yuvingiz qushlar tojidan,
Sarvigul bargiga ko'mingiz meni.
Keltirilgan misralarda ham onam sochidan kafan qiling, quqshlar tojidan qon olib yuvish, sarvigul bargiga ko'mish kabi inson ruhiy holatini aks ettiruvchi betakror metaforik ko'chimlar ifodalangan.
Bu kunlar o'taro, bu kunlar o'tar,
Ortimizdan kulib dunyo kuladi.
Talpinchoq yuragim talpinma buncha,
Bizlar o'tkinchimiz dunyo qoladi.
Boshqa dunyo yo'qdir ismingdan o'zga,
Baxtlarni g'amlarga qildim badarg'a.
Yorib shamollarning ko'kraklarini,
Xorlar chechak bo'ldi men qilgan zorga.

Bir tun men sharpaga aylanib besas,
Oyning qobog'iga umrim berkitdim,
Kel, dedi otashdan tortilgan quchoq,
Erkning ertagiga aylanib ketdim.

⁴Yuqorida keltirilgan misralarda ham inson ruhiy kechinmalarini aks ettirishda muallif juda go'zal va original badiiy ifoda, ya'ni jonlantirish usulida so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash orqali insonning ichki dunyosi, unda jo'sh urayotgan tug'yonlar, his-tuyg'ularni go'zal misralarg marjondek terib qo'ygan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Halima Ahmedova she'riyatida takrorning turli shakllari o'rinli, muayyan maqsad ko'zlangan holda mahorat bilan qo'llangan. Bu esa yuqorida ta'kidlaganimizdek, ohangdorlik, jozibadorlik, musiqiy jilo beruvchi vosita sifatida she'rga o'zgacha jilva baxsh etgan. Xulosa qilib aytganda, takrorlar badiiy asarda qo'llanilganda muayyan obraz hosil qilmasa-da, ularning yaratilishiga, ifodaning go'zallashishiga, fikrning jarangdor va ta'sirchan bayon etilishiga xizmat qiladigan vositalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmonov X, Mahmudov N. So'z estetikasi. T-Fan, 1981. 128-b.
2. Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so'z. Toshkent. Fan. 1993
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. f.f.d. disser. avtoreferat. Toshkent .2009
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T-Fan. 2008
5. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T-Fan 2002
6. O'zbek tili leksikologiyasi. T-Fan 1981
7. H. Xudoyberdiyeva. Osoyishta sham T-O'zbekiston, 2017
8. O'zbek tilining izohli lug'ati 1-tom.
9. Abdurahmonov X, Mahmudov N. So'z estetikasi. T-Fan, 1981. 128-b.
10. Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so'z. Toshkent. Fan. 1993
11. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. f.f.d. disser. avtoreferat. Toshkent .2009
12. Ahmedova H. Erk darichasi – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996
13. Ahmedova H. Umid soyasi – T.: Nihol, 2008 11-bet
15. (Nuriddinova H. Metafora va uning badiiy matnda ifodalanishi).
16. Ahmedova H. Umid soyasi – T.: Nihol, 2008
17. Ahmedova H. Umid soyasi – T.: Nihol, 2008 40-bet

⁴ Ahmedova H. Umid soyasi – T.: Nihol, 2008